

“MYSQL IMKONIYATLARI” KURSINI LOYIHALASHTIRISHDA FOYDALANILADIGAN ASOSIY YONDASHUVLAR

A.A. Qarajanova

*1TATU Nukus branch named after Muhammad Al-Khwarazmi
Assistant of the department "Computer systems"*

D.K. Sipatdinova

Q.Shintemirova

Teacher of Vocational School №1

A.Xojanova

*TATU Nukus branch named after Muhammad Al-Khwarazmi,
2 nd year student of the Faculty of Computer Engineering*

Annotaciya: *Ushbu maqolada “MySQL imkoniyatlari” kursini loyihalashtirishda konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi, axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash, monitoring va baholash yordamida tinglovchilarning bilimlari baholash keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *MySQL imkoniyatlari, konseptual yondoshuvlar, zamonaviy vositalari, usullar, texnikasi, o'qitishni tashkil etish shakllari, monitoring va baholash.*

KIRISH

Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz [2].

Bugungi kunda talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo'llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, 2017 yil 7 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 4947-sonli farmoni bilan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha «HARAKATLAR STRATEGIYASI» tasdiqlandi [1].

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

“MySQL imkoniyatlari” kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyiligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni fodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan birqatorida – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blic-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“MySQL imkoniyatlari” mavzusini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, yuqori darajali dasturlash tillari, Ommaviy ochiq onlayn kurslarning imkoniyatlaridan, o'rnatilgan tizimlardan, MsOffice dasturiy ilovalari imkoniyatlaridan foydalaniladi. “Internet” tarmog'idan kerakli ma'lumotlar qidirishda foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Xulosa

“MySQL imkoniyatlari” mavzusini o'qitishni loyihalashtirishda foydalaniladigan asosiy konseptual yondoshuvlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha «XARAKATLAR STRATEGIYASI».

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 20 apreldagi 2909-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot so'alari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 27 iyuldagi 3151-sonli qarori.

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Paradaev A. Tarbiyada innovacion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: “Iste'dod” jamg'armasi, 2009 -160 b.

5. Deng, R., Benckendorff, P., Gannaway, D. Progress and new directions for teaching and learning in MOOCs (2019) Computers and Education, 129, pp. 48-60.

6. Hudson, L., Wolff, A., Gooch, D., van der Linden, J., Kortuem, G., Petre, M., ten Veen, R., O'Connor-Gotra, S. Supporting urban change: Using a MOOC to facilitate attitudinal learning and participation in smart cities (2019) Computers and Education, 129, pp. 37-47.